

KAS-HUNAR MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI OQITISHDA OQUV MASALALARIDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK – PEDOGOGIK ASOSLARI

Jamalova Perdegul

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorauzak tumani kasb-hunar maktabi
Matematika fani o'qituvchisi*

Orazbaeva Gulnaz

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorauzak tumani kasb-hunar maktabi
Matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Inson hayotida aniq va murakkab hisoblashlarni, geometrik o'lchashning amaliy usullarini, jadval ko'rinishda, grafik yoki diagramma ko'rinishidagi axborotlarni o'qish kabi amallarni bajarishga to'g'ri keladi. Buning uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni inson asosiy matematik tayyorgarlik jarayonida egallaydi.

Kalit so'zlar: Matematika, murakkab, geometric o'lshov, aqliy masala, muammoli masala.

Har bir inson hayotida aniq va murakkab hisoblashlarni, geometrik o'lchashning amaliy usullarini, jadval ko'rinishda, grafik yoki diagramma ko'rinishidagi axborotlarni o'qish kabi amallarni bajarishga to'g'ri keladi. Buning uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni inson asosiy matematik tayyorgarlik jarayonida egallaydi. Bunday tayyorgarlikning asosiy elementini o'quv vaqtining yarmidan ko'pini egallovchi masalalarini yechish tashkil etadi.

Masalalar AL o'quv - tarbiyaviy jarayonini tashkil etishda muhim o'rinni egallaydi. Ularni tahlil qilish bilan psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, mantiq, matematika, kibernetika kabi fanlar shug'ullanadi. Hozirgi vaqtda "Masala" tushunchasi ta'rifiga bir nechta yondashuvlar mavjud.

Birinchi yondashuv doirasida ba'zi olimlar (G.A.Ball, Yu.M.Kolyagin, R.Reytman, G.I.Saransev, A.F.Esaulov va boshqalar) masalani sistemotologiyaning (sistemalar haqidagi umumiy nazariya) qismi bo'lgan murakkab ob'ekt sifatida qaraydi. G.A.Ball masala deganda umumiy holda quyidagi majburiy komponentlarga ega bo'lgan tizimni tushunadi:

a) boshlang'ich holatda mavjud bo'lgan masalaning predmeti (masalaning boshlang'ich predmeti);

b) masala predmetining talab qilinuvchi holatining modeli (u masalaning shartiga mos bo'ladi).

Masala predmetining boshlang‘ich holati deganda talab qilinuvchi holatga o‘tishni amalga oshirish mumkin bo‘lgan predmet holati tushuniladi. Bunday tavsif turli sohaga doir qo‘yilgan masalalarda qo‘llanilishi mumkin. G.A.Ball tizim sifatida qaraluvchi masalani masalaviy holatdan farq qilish kerakligini ta’kidlaydi. Masalaviy holat deganda masala shaklida ifodalanmagan biror ob’ektlar majmuasini tushuniladi. Turli tavsiflarni o‘rgangan holda G.A.Ball “masala” tushunchasini kengaytirishning ushbu ketma-ketligini keltiradi:

Masala → aqliy masala → muammoli masala, bunda:

1. Masala – sub’ektning ma’lum harakatini talab qiluvchi vaziyatdir;
2. Aqliy masala - sub’ektning ma’lum ma’lumotlar asosida noma’lum ma’lumotlarni topishga qaratilgan harakatini talab qiluvchi vaziyatdir;
3. Muammoli masala - sub’ektning harakat usullarini (algoritmini) bilmagan holida ma’lum shartlar asosida ba’zi noma’lumlarga qaratilgan harakatni talab qiluvchi vaziyatdir.

Mazkur ketma-ketlik qo‘yilgan masalaning muammolilik darajasiga bog‘liq ravishda sub’ekt faolligini o‘sishini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matematika. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun o‘quv dasturi.(A.Abdushukurov va boshq.). T. 2010 у.
2. Abduhamidov A.U., Nasimov H.A., Nosirov U.M., Husanov J. H. “Algebra va matematik analiz asoslari” I-II-qism „O‘qituvchi” nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2008.
3. Abduhamidov A.U., Nasimov H.A., Nosirov U.M., Husanov J.H. “Algebra va matematik analiz asoslardan masalalar to‘plami” O‘qituvchi” nashriyot –matbaa aksiadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2002.